



MUSTAQILLIK DAVRIDA YARATILGAN YANGI BADIY SHAKLLAR: BIRLIKLAR VA MONOSTIX

Dilorom Tashova,

f.f.f.d.(PhD)

IIV Buxoro akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mustaqillik yillari o'zbek she'riyatida ijodkorlar tomonidan qator yangi badiiy shakllarda ijod qilindi. Uchchanoq, tasbeh, tarona, muqarnas, chorzarb, shashqator shular jumlasidandir. Shuningdek, bir misradan iborat she'rlarning paydo bo'lishi kitobxonlar diqqatini tortdi. Ushbu maqolada bir misradan iborat she'rlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: monostix, birlik, shakliy izlanish, badiiy shakl, misra, bayt, xalq o'zaki ijodi.

Istiqlol yillari o'zbek she'riyatidagi badiiy shakl izlanishlarida inson ruhining murakkab manzaralarini aks ettirilganligi muhim xususiyat sifatida ko'zga tashlanadi. Mustaqillik davri she'riyati namunalarini qabul qilish uchun kitobxon ham muayyan ruhiy-intellektual tayyorgarlikka ega bo'lishi zarurligini ta'kidlash joiz. Shu jihatdan keyingi yillar o'zbek she'riyatida jahon she'riyati ta'sirida 1 misrali she'rlar yuzaga kelganligini ta'kidlash lozim. Jahon she'riyatida 1 misrali she'rlar mavjud bo'lib, ular monostix deb ataladi: "Monostix – (*gr.* monos – va stushos – bir she'r so'zlaridan) bir misradan iborat she'r. Qadimgi davrda she'riy aforizm sifatida mavjud bo'lgan¹. XVI asr ingliz adabiyotshunosi Ben Jonson "she'r deb faqat shoirning ko'p yo ozroq miqdordagi misralardan tarkib topgan asargina atalmaydi, yo'q, ba'zan hatto birgina misra ham a'lo darajadagi she'r bo'lishga qodir"², deya bir misrali she'rlar mavjud ekanligini aytgan edi.

¹ O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Navro'z, 2009. – B.100.

² Ben Jonson. Qaydlar yoki kuzatishlar // G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008. – B.209.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

So‘nggi yillar o‘zbek she‘riyatidagi shakliy-uslubiy izlanishlar natijasida qator badiiy shakllar paydo bo‘ldi. Birlik deb atalayotgan poetik shakl shular qatoriga kiradi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida keltirilgan satrlar mumtoz adabiyotda ham birlik bo‘lganligini asoslaydi, ulug‘ mutafakkir uni “misra” deb tilga oladi³.

Yana yor ayladi bedodi bunyod.

Ishqiy mazmundagi bu misrada yordan ozor chekkan oshiq holati ifoda etilmoqda.

Jahon bo‘lmasun do‘st gar bo‘lmasa do‘st.

Shoir aytmoqchi, agar do‘st do‘stlik qilmasa jahon bo‘lmasin.

La‘ling mayidin ko‘ngil erur masti alast⁴.

Bunda visol istayotgan oshiq holati aks etgan.

Ummid ila keldim, vale armon bila bordim⁵

Yuqoridagi misrada falsafiy fikr aks etgan: zero, inson hayotga umid bilan keladi, armonlarni yuzaga chiqarish uchun orzu qilib yashaydi. Ko‘rinadiki, ulug‘ shoirning “misra” deb tilga olgan she‘rlari falsafiy to‘yinganligi, ishqiy kechinmalarni ifoda etishi bilan zamonaviy she‘riyatdagi shu shaklda yozilgan she‘rlar uchun asos vazifasini o‘tagan.

Xalq og‘zaki ijodidagi maqollarga o‘xshash bu shakl namunalari zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Anvar Obidjon ijodini bezab turibdi. Shoir bu badiiy shaklni “ignabarg” deb ataydi. Adabiyotshunos Q.Yulchiyevning yozishicha: “Ignabarg” deyilishi mazmundagi fikr, g‘oya o‘quvchini igna kabi “sanchib” olishi va archaning ignabargi kabi doimo yashil bo‘lib, yashnab turishiga juda mos tushadi. Bu atamani shoirning o‘zi qo‘llaydi”⁶.

Turk olimi N.S.Banarlining fikricha, “Eski Eron she‘riyatida nazm birligi misra bo‘lgan...”⁷. “Misra” aslida arabcha so‘z bo‘lib, eshikning bir tabaqasi degan ma‘noni bildiradi. M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida birlikning

³ Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967. – Б.152.

⁴ Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1967. – Б. 152.

⁵ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик, 13-том. Муншаот. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.179.

⁶ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърларида бирлик ва ўқилик поэтикаси. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б.14.

⁷ Nihat Sami Banarlı. Resimli Türk edebiyatı tarihi. – İstanbul: Milli Eğitim Basımı, 1987. 1 jild. - S.52.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

dastlabki namunalari uchraydi. Adabiyotshunos Q.Yulchiyevning fikricha, bir qatorli she'rlar A.Navoiy va Bobur ijodida ham mavjud⁸. Binobarin, “monostix bir misradan iborat she'r, qadimgi davrda she'riy aforizm sifatida poeziyada mavjud edi. Hozirgi paytda uchramaydi”⁹. 2010-yilda chop etilgan lug'at (so'zlik)da esa mualliflar bir qatorli she'rni misra deb atashgan hamda mumtoz adabiyotda Bobur, zamonaviy she'riyatda Anvar Obidjon, Ulug'bek Hamdam, Shermurod Subhonlar ijodida uchraydi, deb yozishgan¹⁰.

Ko'rinadiki, keyingi yillar she'riyatida bir misrali she'rlarning yaratilishi tasodifiy emas. Uning genezisi xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyoti sahifalariga borib tutashadi. Bugungi she'riyatimizdagi birliklarni mumtoz adabiyotimizdagi she'riy shakllarning an'anaviy davomi deyish mumkin. Unga xos bo'lgan muhim xususiyat aforistik mazmunga egaligi bilan xarakterlanadi. Zero, adabiyotshunos Q.Yulchiyev to'g'ri ta'kidlaganiday: “Ignabarg she'rning birinchi manbasi ijodkorning real hayotga ongli munosabatidir. Ba'zi ignabarglar bevosita shoirning yozmoqchi bo'lgan butun bir she'rlarining shoh satri sifatida dunyoga kelgan”¹¹. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida “aforizm” janri mavjud. Mohiyatan maqolga yaqin bu janrdagi asarlar asosan ikkiliklardan tuzilgan. Hikmatli so'zlar unga sinonim sifatida ishlatiladi. Hozirgi she'riyatimizda yozilgan birliklar ham, avvalo, ixchamligi, soddaligi bilan, qolaversa, axloqiy-falsafiy mazmuni bilan alohidalik kasb etadi.

Adabiyotshunos Q.Yulchiyev maqol va ignabarglar, ya'ni birliklarni qiyoslar ekan, shunday yozadi: “Ignabarg she'rlarda voqelikka lirik munosabat mavjud, maqol, matal, parema, aforizmlarda esa “lirik men” bo'lmaydi, muallif “men”i voqelikdan chetda bo'ladi. Shu tariqa mavzu doirasi, individual kechinmalar ham sezilmaydi”¹². Haqiqatan, maqolning muallifi aniq emasligi, og'zaki ijod janri ekanligi, aforizm

⁸ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик поэтикаси. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б.17.

⁹Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи,1983, – Б.202.

¹⁰Салаев Ф., Қурбонийёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.134.

¹¹ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 23.

¹² Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 26.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap ekanligi kabi belgilar ignabarglarning ulardan tubdan farq qilishini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy adabiyotimizdagi birlik shaklidagi she'rlarda lirik kechinma ustunlik qiladi. Maqol va aforizmlarda esa axloqiy-didaktik mazmun yetakchi o'ringa chiqadi. Faxriyor, Anvar Obidjon she'rlari misolida fikrlarimizni asoslashga harakat qilamiz.

Rus adabiyotida bir qatorli she'rlar rivojlanmoqda. Uning bir necha ko'rinishlari mavjud: 1. Monostixning ildizi folklor (topishmoqlar, hazillar, maqollar, matallar) hisoblanadi. 2. Kechinma yetakchi bo'ladi. Bunda metafora yoki boshqa figuraga asoslangan, muallif intonatsiyasiga ega bo'lgan uyushgan asardir. 3. Palindromik shakl¹³.

Istiqlol she'riyatida yaratilgan birliklarni ham xuddi shunday guruhlariga ajratish mumkin: 1. Xalq maqollari va matallari yo'sinidagi birliklar. Bularda intellektuallik, fikr ustunlik qiladi. 2. Lirik kechinma ifoda etilgan birliklar.

Ma'lumki, "ignabarglar" deb nomlanuvchi yangi badiiy shakl Anvar Obidjon shakliyl-ustubiy izlanishlarining natijasidir. Ba'zilarini "O'rta barmoq", "O'sht" deb nomlaydi. Haqiqatan, birliklar maqollar kabi ibratomuz fikrlar va ramziy obrazlarga, yumorga boy. Adabiyotshunos Q.Yulchiyevning yozishicha: "Shoir voqelikka munosabatini teran fikr, ehtiros va xalqona soddalik bilan ifodalaydi, natijada she'rda xarakterning ma'lum qirrasini namoyon bo'ladi"¹⁴. Binobarin, "It – sayoq, lek qimor o'ynamas" birligida it va qimor obrazi orqali bugungi hayotimizdagi noqisliklarga ishora bor. Ya'ni it sayoq yuradi, biroq inson qiyofasidagi hayvonlar qimor o'ynaydi. Bu borada shoir shunday insonlardan itni ustun qo'yadi. "Ro'molcha bor, Dezdemonaga yo'q". Bunda Dezdemonaga ishora bor, talmeh qo'llangan. Ro'molcha – badiiy detal. "Otello" tragediyasida ro'molcha tufayli Otello sevgilisi Dezdemonani bo'g'ib o'ldirib qo'yadi. Shoir shu voqelikka ishora qilgan ekan, rashk qilishga asos bo'lgan ro'molcha bor, biroq Dezdemonaga o'xshagan ayollar yo'qligini aytadi. "Uylanganmish koptokka tarvuz". Bunda koptok va tarvuz obrazlari orqali poetik fikr badiiy ifoda etilgan. Dumaloq bo'lgan

¹³ <https://liricon.ru/monostih-chto-eto-takoe-primery.html>

¹⁴ Юлчиев К. Ўзбек шеърларида бирлик ва уқлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 27.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

bu ikki narsa faqat shaklan mutanosib, biroq mazmunan boshqa-boshqa narsalardir. Bundagi ramz shundan iboratki, hayotda birlashayotgan ikki inson bir-biriga munosib emas. “Kalda taroq, ko‘rda chiroq bor”. Mantiqan xalqimizning “Kalning nimasi bor, temir tarog‘i bor” maqolini eslatuvchi bu misrada kal, taroq, ko‘r, chiroq obrazlarini parallel holatda keltirish orqali maqoldagi mazmun kuchaytirilgan. Ya‘ni taroq kalga, chiroq esa ko‘rga kerak emas. “Sol pashshani! Gap poylayapti!”. Bu birlikda ham ramziy ma‘no bor. Ya‘ni pashsha quloqning ostiga kelib g‘o‘ng‘illaydi. Buni shoir “gap poylayapti” ifodasi orqali ochib bergan. “G‘o‘ng‘illash” va “gap poylash” ifodalari mantiqan mosdir.

Anvar Obidjon – tabiatan yumorist shoir. U hayotda kuzatgan turli nobop holatlarni, qusurlarni ramz va timsollar vositasida yumorga yo‘g‘irib badiiy aks ettiradi. Qisqa va lo‘nda fikrlarni jam etgan birliklar shu jihatdan bugungi she‘riyatimizdagi novatorlik hisoblanadi. “Qiynaysan-da insofli bo‘lsam”. Bunda kinoya bor. Binobarin, insofli, diyonatli odamlarga yashash hamisha qiyin bo‘lgan. Yuqoridagi misrada shunga ishora bor. “It egasin qopmas, pul qopar” misrasi ham “It o‘z egasini qopadi” xalq maqoliga teskari tuzilgan. Ya‘ni pul, boylik uchun yashaydigan insonlar uchun aytilgan. “Ko‘nglingga ko‘p burningni tiqma”. Axloqiy mazmun tashuvchi bu misrada ko‘ngil obrazi asosiy o‘rin egallaydi. Burun bunda salbiy ma‘noga ega. “Muzey – Gulmat nos tupurgan joy”. Bu misrani o‘qir ekanmiz, o‘z ma‘nosida xunuk manzara ko‘z oldimizga keladi. Gulmat shoirning hajviy qahramoni. “Yiqildingmi? Nega chiquvding?” misrasi ritorik so‘roq asosida qurilgan. “Yiqiladigan bo‘lsang, chiqmaslik kerak edi” tarzidagi mazmun yashiringan. “Qoch! Quyoshni to‘sma, shamchiroq!”. Bunda quyosh va shamchiroq obrazlari orqali shoir iste‘dodli yoshlar va shu iste‘dodlarga to‘siq bo‘layotgan ayrim yoshi kattalarga ishora qiladi. “Do‘st bo‘larmish... tilimni tiysam”. Bunda ham axloqiy mazmun yashiringan. Haqiqatdan ko‘z yumib, jim o‘tirish “tilni tiyish”ni bildiradi. Shu holatdagi do‘stlik esa soxtalikdir. “Oshqozonga o‘xshar nigohi”. Oshqozon bunda ochko‘zlikni ifoda etmoqda. Oshqozon ovqatlarni qabul qilgani kabi, hasad bilan qarash, nigoh ham shunga monand. “Do‘stlasholmas Nay va Nog‘ora”. Bunda nay va nog‘ora timsollari orqali nomutanosiblik ifoda etilgan. To‘g‘ri, ikkalasi ham kuy chalish vositasi. Biroq nog‘ora ovozi dabdaba va



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

ko'tarinkilik, nay sadosida esa mahzunlik va mayinlik bor. Bu ikki obrazdagi ramziylik hayotdagi qo'pol va halim insonlarni o'zida aks ettiradi.

Go'sht yesa-ku qo'ydan qo'rqudik¹⁵.

Bor-yo'g'i bir satr, ammo majoziy ma'nosiga diqqat qilsangiz, fikrlar girdobida qolasiz. Shoir bir satrlarni falsafiy xulosaga to'yintirib yozadi¹⁶, satrni aforizm, ya'ni hikmatli so'z darajasiga ko'taradi.

Shimim mendan ko'ra puldorroq. (58-b.)

She'rni o'qib o'ylanib qolasiz, shoir topgan manzara yoki fikr zamirida haqiqat va ramziy ma'no borligiga tan berasiz:

O'zi omon, kitobi marhum.

Isitmalab yotar qalamim. (28-b.)

Yuqoridagi misralarda "isitmalab" yasama otdan yasalgan fe'l qo'llangan. Bu so'z tibbiy termin bo'lib, matnda ko'chma ma'noda kelgan. Ya'ni "qalamning isitmalashi" ijodga tashnalikni bildiradi.

Ichdim. Gazak qildim sog'likni. (92-b.)

Bunda ham "sog'lik" so'zi tibbiyot bilan bog'liq atama sifatida kelgan. Biroq matnda "gazak qildim sog'likni" iborasi orqali ichkilik tufayli sog'likka zarar yetkazish mumkinligi aytilmoqda.

Faxriyorning so'nggi yillar ijodiy izlanishlarida birlik shakli alohida o'rinni tashkil etadi. Turli abadiy va azaliy mavzular ifoda etilgan bu she'rlar falsafiyli va ixchamligi bilan e'tiborni tortadi. Tadqiqotchi olim Q.Yulchiyev to'g'ri ta'kidlaganiday: "Birlik she'rlarda badiiy voqelikning kulminatsion nuqtasigina tilga olinadi. Voqelikning qolgan qismlarini tasavvur qilish va xulosa chiqarish o'quvchi ixtiyoriga qoldiriladi". Binobarin, "Tushlarimdan chiqarmi men sevgan ayol?" ritorik so'roq mazmunidagi bu misrada inkor ma'nosi bor. Ya'ni oshiq ko'ngliga o't solgan ayol tushiga ham kirmaydi. "Yig'i, seni qandoq kuldiray?" Oksimoron va ritorik so'roq asosiga qurilgan bu misrada qayg'u va shodlik haqida fikr boradi. "Tun kimning baxtiki bunchalar qaro". Bunda tun va baxtiqarolik parallel holda keltirilgan. "Kelajakni yashab bo'ldim men", – deb yozadi shoir.

¹⁵ Obidjon A. Bezgakshamol – 2. – Toshkent: Sharq, 2003 – B.57. (Keyingi misollar shu manbadan olinadi va qavs ishida beti ko'rsatiladi).

¹⁶ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик поэтикаси. PhD диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б.27.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Ya'ni ijod ahli oddiy insonlardan ko'ra bir necha masofa oldinda yuradilar. Ular kelajak bilan yashaydilar. Yuqoridagi birlikda shunday ma'no mujassamlashgan. "Sochimni so'zlarning changiga belab" birligida esa "so'zlarning changi" shoirning badiiy topilmasidir. Nazarimizda, bunda sochning oqarishi aks ettirilgan. "Ajin tusha boshlar ko'zgu yuziga" birligida ajin va ko'zgu obrazlari orqali poetik falsafiy fikr ifoda etilgan. Ya'ni shoir aytmoqchi, inson ko'zguda o'z qiyofasini ko'radi. Shu ko'zgu uning yuziga ajinlar tushayotganligini, umrning qishi yaqinlashganligini ko'rsatib turadi.

Umuman, shoir ignabarglarida Vatan va vatanparvarlik, erk va erksizlik, zulm va unga qarshi kurash, go'zallik va xunuklik, mehr-oqibat va mehrsizlik, yolg'izlik, tog'rilik va egrilik, odamiylik, qadriyat va qadsizlik, sadoqat va xiyonat, loqaydlik, oila, taqdir va tadbir, fidoyilik, orzu va armon, imkoniyat va ilojisizlik, ikkiyuzlamachilik, maqtanchoqlik, nafs, ezgulik, hasad, baxillik, visol va hijron kabi mavzularni qalamga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Navro'z, 2009.
2. Ben Jonson. Qaydlar yoki kuzatishlar // G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Toshkent: Fan, 2008
3. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти, 1967. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик, 13-том. Муншаот. – Тошкент: Фан, 1998.
4. Nihat Sami Banarli. Resimli Türk edebiyati tarihi. – Istanbul: Milli Eğitim Basimi, 1987. 1 jild.
5. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи,1983.
6. Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
7. Юлчиев Қ. Ўзбек шеъриятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017.
8. Obidjon A. Bezgakshamol – 2. – Toshkent: Sharq, 2003.
9. <https://liricon.ru/monostih-chto-eto-takoe-primery.html>